

ABDULLAXON II VA UNING TASHQI SIYOSATI.

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`g`li

Namangan davlat universiteti.

Tarix yo`nalishi 2- bosqich talabasi

E.mail:bilolmuhammadiev5@gmail.com

Tel:+998957707796

Annostatsiya: *Ushbu maqolada shayboniy mashur hukumador Abullaxon II ning taxt uchun kurashlari, hokimyatga kelishi, mamlakatni qayta birlashtirishi, qo`shni davlatlar bilan tashqi aloqalari va faolyati yoritilai.*

Kalit so`zlar: *Abdullaxonning yoshligi, Baroq xonga qarshi kurashlar, Karmana jangi, G`azo qalasidagi hujumlar, Abdulmo`min, Akbarshoh, Xo`ja Oltamish, Sulton Salim, A. Jenkinson. Muhammad Ali, Shoh Abbos.*

Movorounahirdagi shayboniyalar davlati XVI asr o`rtalariga kelib siyosiy tarqoqlik, hokimyat uchun kurash, mamlakatning turli hududlari mustaqilik ilinjida turli yo`llar bilan markazdan uzoqlashish siyosatini olib borishdi. Shunday sharoitda Abdullaxon II katta saxnaga chiqdi. Dastlab otasi Iskandar Sulton taxtga o`tqazdi va ota bola hokimyatni boshqardi. Otasini o`limidan so`ng esa to`laligicha hokimyat o`z qo`liga qoldi. Uning mamlakat hayotidagi qilgan o`zgarishlari natijasida Buxoro xonligi XVI asr oxirida mustahkam yirik davlatga aylandi

Abdullaxon II (to`liq ismi Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek Sulton ibn Xo`ja Muhammad ibn Abulkayrixon) 1534- yil Miyonqolda dunyoga kelgan. Uning yoshlik davri shayboniyalar davlatida og`ir siyosiy vaziyat hukum surardi. Mamlakatda xon bo`lish uchun ko`plab kishilar kurash olib borardi. Ulardan biri Toshkent hokimi Baroqxon (Navro`z Ahmadxon) edi. Yosh Abdulla Koson yonida 1548, Mo`g`ulison xoni Abdurashidxon va shayboniylardan Do`stum sultonlar qo`shiniga qarshi Farob yonida 1554- jang qilgan. Abdulla o`zini sulton sifatida bor jasoratini 1551-yilda Karmanada ko`rsatdi. Karmanaga Toshkentdan Baroqxon Samarqandan Abdullatifxon hujum qilqilgan. Abdullaxonning otasi Iskandar sulton Amudaryoning ortiga qochib ketgandan keyin otasini vazifasini o`z qo`lia olgan Abdullaxon hujumni muvaffaqiyatlari qaytarishga erishgan. Keyingi yillarda 1552-1556-yillar o`z mulkini g`arbga Buxoro tomonqa, janubi-sharq – Qarshi va Shaxrisabz tomonqa kengaytira boshlagan. Bu harakatlar dastlab muvaffaqiyatsiz chiqan, xatto 1556-yilda u ota meros mulkini tashlab Maymanaga ketishga majbur bo`ldi. Amakisi Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Xoja Muhammad Islom ko`magida Baroqxon, keyinchalik uning o`g`li Darveshxon va Bobosultonlarga qarshi uzoq mudad kurash olib bordi. Navro`z

Ahmadxon vafod etgach 1556-yilda Buxoroni qo`lga kiritdi va o`z davlati poytaxtiga aylantirgan. O`sha davrdagi shayboniyalar odatiga ko`ra taxtga Yoshi ulug` shayboniy taxtga o`tirishi kerakligi sabali Abdullaxon taxt o`z qolida bo`lishiga qaramay dastlab amakisi harbiy yordam ko`rsatgan Pirmuhammadxonni taxtga o`tqazdi. Uning o`limidan so`ng otasi Iskandar sultoning taxtga o`tqazdi. Ularning nomidan davlatni boshqardi. Markaziy hokimyatga bo`ysinishni istamagan shayboniylargacha qarshি kurashib, Balx 1574, Samarqand 1578, Toshkent, Sayram, Turkiston 1583 yil va Farg`onani 1583-yili egaladi. 1582-yili Dashtga yurish qilib, Ulug`toga qadar yetib brogan. 1583- yilda otasi Iskandar sulton vafod etgach mamlakatni o`z nomidan boshqara boshlagan. Markaziy hokimyatga qarshи ko`tarilgan Maymana va Garchiston 1583-yil shunungdek. Bdaxshon 1585-yildagi qo`zg`olnlarni bostirdi. Bu paytda Xorazim mustaqil bo`lib u yerda ham shayboniyalar sulolasini bir oilasi boshqara edi. Abdullaxon 1594 – 1596-yillarda yurishlar qilib Xorazmni ham o`z davlat tarkibiga qo`shib oldi. Sharqiy Turkustonga qilgan harbiy yurishlari natijasida Qoshg`ar va Yorkent viloyatini olgan. Bu paytda Hindistonda tashkil topgan Boburiylar davlati ham Badaxshon, Shimoliy Afg`oniston va Xuroson uchun Abdullaxonga qarshи kurashdi. Abdullaxon II Bunga qarshи Sind 1583-yili, 1586-yili Kashmirga harbiy yurishlari natijasida bu hududlarni egalab o`z davlatining janubi chegaralarni mustahkamladi. Shayboniyxonlar va Eron safaviylari o`rtasida Xuroson uchun uzoq kurashlar bo`lib o`tgan. Abdullaxon II davrida ham kurashlar bo`lib o`tdi. [3.-B. 45-46]

Jumladan Xurosondagi G`azo qalasini olishda Abdullaxon II ning qo`shinlari miltiq, to`plardan keng foydalandi. Qala atrofi chuqur xandax bilan o`ralgan edi. Burjlarini ham qala qo`riqchilari yaxshi himoya qilishdi. Shu sabab sarkarda Amir Bekoybiy odamlarni yig`ib, qala muqobiliga teng bir tepalik yasashni buyurdi. Tepalik ustidan kuchli o`t otuvchilar, naftboz va miltiq otuvchilarni tayin qildi. Chunki ularni otgan o`qi qala ustidagi kuzauvchilarni ko`zini qon bilan bo`yadilar. Shu kabi kurashlar natijasida Xurosonning shaxarlari Mashhd, Hirot, Sabzavor va Gilon qalalarini egaladi va o`z davlati tarkibiga qo`shib oldi. [4.-B.249] Abdullaxondi uzoq vaqt say-harakatlari natijasida tuzgan davlti hududi sharqda Qoshg`ardan, g`arbda esa Orol va Kasbiy dengiziga qadar, shimolda esa Turkiston va Sayramdan, janubda Xrosoning sharqiy qismiga qadar g`oyat katta mulkarni bir markaz ostida birlashtirdi. Hayotining so`ngi paytlarida o`g`li Abdulmo`min bilan kelisha olmadi, o`rtada ixtiloflar paydo bo`ldi. Bundan foydalangan mamlakat shimolidagi qozoq xonlari Buxoroga qo`shin torta boshladi. Jumladan qozoq xoni Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent -Samarqqand oralig`iga bostrib kirdi. Abdullaxon unga qarshи yuborgan qo`shini yengilgach, o`zi safarga otlandi. Abdullaxon Samarqandga yetganda o`g`li Abdulmo`min 1598-yili 8-fevralda amir Muhammad Boqibiy bilan kelishib fina natijasida otasini zaxarlab o`ldirdi. Chunki Abdullaxon Hirot shaxrini safaviylardan olgach o`z og`liga emas Qulbobo

ko`kaldoshga taqdim etgandi. Xurosondagi noiblari Qulbobo ko`kaldosh, Dinmuhammadlarga maktublar yo`lab ularni Abdulmo`minga itoat etmaslikni va xató imkon topilsa jismonan yo`q qilishni buyiradi. Xususan Niso, Obivard va Duron viloyatlari hokimi Nurmuhammadxonni qo`lab uni Abdulmo`minga qarshi urushga undaydi. Bundan g`azablangan Abdulmo`min 1597-yilning kuzida Balx va Badaxshon qo`shini bilan Amudaryo sohiliga otasiga qarshi qo`shin tortdi. Bu paytda Abdullaxon qo`shini Nasaf (Qarshi) atrofida joylashgan edi. Balx va Badaxshon hokimlarini aralashuvi bilan Abdullaxon va o`g`li o`rtasidagi nizo vaqtincha to`xtab turdi. Lekin qulay fursat bo`lishi bilan otasini o`ldirdi. Buxoro taxtida 1598-99 -yillari o`tirdi. U ham ko`p yashmadi Zomindan Samarqandga kelayotgan vaqt otasini amirlridan Abdulvose uni otib o`ldiradi. Oradan ikki yil o`tib shayboniyalar sulolası mamalakat taxtidan ketdi.[3.-B.46]

Abdullaxon II Hindiston, Eron Rossiya, Usmonli davlatlari bilan tashqi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy aloqalar olib brogan. 1572- yilda Hindistonga Xo`ja Oltamish boshchiligida elchilarni yubordi. Elchiar sovg`a salomlar bilan birga Akbarshoh huzuriga Abdullaxonidan maktub ham olib keldilar. Maktubda do`stlik munosabatlari shu bilan birga Eroni hududini ikki mamlakat taqsimlab olishni ilgari suradi va bu reja ikki davlat o`rtasida sir saqlandi. Ikkinci bor Abdullaxon II 1577- yilda Hindistonga Abdurahimni yubordi bu safar ham shu masala Eronni bo`lib olish masalasi ko`rildi.[1] .Abdullaxon II 1578- yilda Zominda (Iqor qo`rig`ida) turganida, Hind hukumdori Jaloliddin Akbar tomonidan Mirza Po`lad boshchiligida yuborigan elchilari uning huzuriga kelib Xuroson va Erondagagi o`zaro tasir doiralarini belgilab olish to`g`risidagi masalalarni muhokama qilgan. Rossiya tomonidan Astiraxan xonligii bosib olinishi natijasida Rossiya va Buxoro munosabatlarini yo`lga qo`yishga imkon berdi. Jumladan 1557- yilda Xiva va Buxorodan Rossiyaga savdo aloqalarini yo`lga qoyish uchun elchilar yuborildi. 1558- yilda A. Jenkinson Ivan IV nini elchisi sifatida, Abdullaxon davrida esa 1583-yilda qimmarbaxo sovg`a salomlar bilan elchilar kelishan.[4.-B.83] bu sovg`lar ichida o`q-dori, ov qushlari va matolar keltirilgan[1] Abdullaxonidi elchisi Muhammad Ali 1585-yili 11-noyabirda o`zining 18 kishidan iborat hamrohi bilan Astraxanda kutib olinadi va 50 nafar harbiylar kuzatuvi ostida Maskivaga yetib keladi. Muhammad Ali o`zi bilan birga turli rangdagi 2000 zandoni(mato) 200 ipak gazlama, 100 ta yaltiroq va mahin mato va boshqa maxsulotlar keltirgan. Abdullaxon II ikkinchi bor Muhammad Alini 1589 -yilda Rossiyaga elchi qilib yubordi. Bu safar uning mollarini Astiraxan yonida zo`rovonlik yo`li bilan tortib olishdi. Savdogarlar Rossiya hukumdori Feodor Ivanovichga maktub yo`laydilar va chora ko`rishlarini so`raydi. Feodor savdogarlarni shikoyatini inobatga olib chora ko`radi. Ularni mollaridan boj olmaslik to`g`risida farmon chiqardi. Shu bilan birga Muhammad Aliga 1000 rubl pul, 500 charim, 50 pud asal, 50 vedro vino, 10 nafar

nemis asirlarini sotib olish va olib ketishga ruxsat berildi[2.-B160-164].1600- yilga qadar Buxorodan Rossiyaga besh marotaba elchilar brogan.

Abdullaxon II 1571- yilda Usmoniy hukumdon Salim II ga maktub yo`llab. U maktubida Safaviylarga qarshi birgalkda kurashish kerakligini aytgan. Abdullaxon II o`z maktubida Salimni otasi Sulaymon I davrida ikki mamlakat o`rtasida safaviylarga qarshi kurash esga olinadi. Sulton Salim II javob maktubida Qibrus masalasi bilan mashg`ulligini bildiradi. Yana bir marotaba 1588-yilda Abdullaxon II Hoji Bahodirqul va Boqi Hojilarni yuboradi, ammo tainli javob olaolmaydi[1]

Buxoro xonligi va Eron safaviylari o`rtasida munosabatlar anchagina zidiyatli bo`lgan. Bu ikki davlatni manfati to`qnshgan hudud Xuroson bo`lgan. Davlatlar elchilar almshinsa o`zlarini shartlari bilan borardilar. Balx hokimi Muhamma Nazarbiy o`rtasid 1586-yilda aloalar buzuldi va u lavozimidan bo`shatilib Makkni ziyyarat qilish uchun jo`natildi. Shu bilan birga unga Safaviylar davlatiga elchi bo`lish “ Makka ziyyaratiga yo`l olganlar uchun yo`lda turli noxushliklar sodir etib ,to`sinq bo`layotgani munosabatidan suuniylikni qbul qilib, to`g`ri yo`lga kirish va bunday jinoiy xatti- harakatlarni boshqa sodir etmasliklirni uqtirish” vazifasi yuklatildi. Lekin u yuqoridagi shartlariga shiyalardan rad javobini olib Buxoroga qaytadi. Abdullaxon hali tirikligi davridayoq o`g`li Abdulmo`min (156-1598) islomni shiya mazhabini rasmiy din sifatida qabul qilgan Eron safaviylarig qarshi kursh boshlagandi. Jumladan 1589 -yilda safaviylar qo`lid abo`lgan Mashhad shahriga yurish qildi. Shaharni egalagandan so`ng airlni movorounahirga yubordi. Mashhadagi Muqaddas Ali Rizo mozori yaqinida dafi etilgan Eron shohi Taxmasp qabri buzib tashlanib uning suyaklari g`ayriddining suyaklari sifatida yoqib yuborildi. Bu bilan shahzoda Abdulmo`min o`z bobokoloni Shayboniyxonning safviylar tomonidan tahqirlangan jonsiz tanasi uchun qaysidur manoda o`ch olgan. 1597-yil Abdullaxon II Eron shohi Abbosga elchilar yubordai, ammo shoh Abbos elchilarga yaxshi munosabatda bo`lmaydi va u orqali Abdullaxonga kelasi yili (1598) bahorda Xurosonga yurish qilishini ma'lum qilgan.[2.-B.164]

Shayboniylar davlati va Qoshg`ar o`rtasida elchilar almashunuvi bo`lib turgan. Jumladan Abdullaxon II davrida Buxorodan Qoshg`arga Do`st Mirzo Chuhra og`asi boshchiligidagi elchilar brogan.[5.-B.83]

Xulosa qilib aytganda shayboniylar davlati Abdullaxon II davrida o`zining ham siyosiy ham iqtisodiy harbiy sohasida eng yuqori cho`isiga erisha oldi. Mamlakatni qilich kuchi yordamida birlashtirdi, bo`ysimaganlarga qarshi kurashdi, Eron safaviylariga qarshi kurshlari natijasida Xuroso, Eroning shimoli- sharqiy hududlarigacha bo`lgan hududlarni, boburiylarga qarshi kurshlari natijasida esa janubiy hududlarini mustahkamlab oldi. Shu bilan birga Abdullaxon II davrida qo`shni mamlakatlar bilan aloqalar yo`lga qo`yilib ular bilan savdo iqtisodiy va elchilik almashunuvlari bo`lib o`tgan.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. Wikipedia.
2. Akbar Zamonov, Buxoro xonligi tarixi- Toshkent,2021.264 b.
3. Farhod Sultonov, Farux Bozorboyev, O`zbekiston hukumdorlari -Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashri, 2007. 88 b.
4. Хофиз Таниш Бухорий Абдулланома 2- китоб -Тошкент: Шарк. 2000. 288 b.
5. Зийодулла Мукимов, Шайбонийлар давлати ва хукуки- Тошкент: Адолат, 2007. 154 b.

